

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03.30.2019.T.08.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ATAJANOV AKBAR BAZARBOYEVICH**

**ARRALI JIN KOLOSNIGINING ISHLASH MUDDATINI  
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA KIMYOVIY-TERMIK  
ISHLOV HISOBIGA OSHIRISH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika  
tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

**Atajanov Akbar Bazarboyevich**

Arrali jin kolosnigining ishlash muddatini konstruksiyasini takomillashtirish va  
kimyoviy-termik ishlov hisobiga oshirish..... 3

**Атажанов Акбар Базарбоевич**

Повышение долговечности колосника пильного джина совершенствованием  
конструкции и применением химико-термической обработки..... 23

**Atajanov Akbar Bazarboyevich**

Increasing the service life of the sawmill due to the improvement of its construction  
and chemical-thermal processing..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 47

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ATAJANOV AKBAR BAZARBOYEVICH**

**ARRALI JIN KOLOSNIGINING ISHLASH MUDDATINI  
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA KIMYOVIY-TERMIK  
ISHLOV HISOBIGA OSHIRISH**

**05.02.03-“Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va  
robototexnika tizimlari”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5095 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.ttesi.uz>) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Safayev Abduxalil Abdurahimovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Muxammadiyev Davlat Mustafoyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shoxjaxon ko'chasi, 5-uy). Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: (titlp\_info@edu.uz). Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertasiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (232-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shoxjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil 12-aprel kuni tarqatildi.  
(2025 yil 12-apreldagi 232-raqamli reestr bayonomasi)

**X.H.Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**SH.SH.Xakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda to‘qimachilik sanoatini tezkor ravishda rivojlanishi birinchi navbatda sifati yuqori bo‘lgan paxta tolasini qayta ishlashni taqozo etadi va hozirda paxta tolasini sifatini ta’minlash paxta tozalash korxonalarida yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash hamda mavjudlarini takomillashtirish yo‘nalishlarida olib borilmoqda. Paxta tolasini yetishtirish va uni qayta ishlash bo‘yicha yetakchi, jumladan, Xitoy, AQSH, Hindiston, Turkiya kabi qator mamlakatlarda paxtani birlamchi qayta ishlash texnologik jarayoni uchun yangi ishchi qismlar ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda paxta tolsi sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish imkonini beruvchi yangi energo-va resurstejamkor texnologik mashinalar va jihozlarlardan foydalanishga hamda qo‘llanilayotganlarini chuqur takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxtaning talab etilgan sifati asosan tolaning uzunligi, tashqi ko‘rinishi va tarkibidagi chiqindilar miqdoriga qarab belgilanadi. Bularni inobatga olgan holda, paxtani qayta ishlash texnologik jarayonining asosiy bosqichi -jinlash texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari jadal olib borilmoqda. Jumladan, jin mashinasining ishlash texnologik jarayonini avtomatlashtirish, uning ish unumdorligini oshirish, bunda energiya tejamkorlikni ta’minlash, asosiy ishchi qismlaridan biri hisoblanadigan kolosniklarni resurstejamkor konstruksiyalarini ishlab chiqish, mashinaning ekspluatatsion ishonchlilagini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamdagi maqsadli yechimlarni amalga oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxtaga birlamchi qayta ishlov beradigan texnologik mashinalar va jihozlarni energiya va resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish va ekspluatatsiyadagilarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jumladan, “...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulishini oshirish” borasida muhim vazifalar belgilab beradi. Ushbu vazifalarning ijrosini amalga oshirishda paxta tozalash sanoatida arrali jin mashinasi uchun ishlash muddatlarini oshirish imkonini beruvchi ishchi qismlar, jumladan, kolosnikni takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish, uning ko‘rsatkichlarini asoslash, ishchi qismini maqbul materiallar bilan ta’minlash, energiya va resurs sarfini kamaytirish muammosini yechish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 1-maydagи PF-71-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 22-iyuldagи PF-103-sonli “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yahshilashga oid chora-tadbirlar to‘qrisida”gi Farmoni, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-sonli “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni,

2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-sonli “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi vaqtga kelib paxta sanoati texnologik mashinalari, jumladan, jinlarni yangi samarali konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularni ishchi qismlarini takomillashtirish hisobiga paxta tolasining tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlagan holda, paxta sanoati texnologik mashinalarning ishchi qismlarini konstruktiv va texnologik ko‘rsatkichlarini asoslash masalalari bo‘yicha bir qator xorij olimlari, jumladan, S.Z.Hall, T.Elliot, S.E.Hughs, R.N.Rakoff, A.V.Stanley, R.G.Hardin, P.A.Funk va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimizda B.A.Levkovich, G.I.Boldinskiy, G.I.Miroshnichenko, P.N.Tyutin, R.Mustafin, M.S.Eshonov, S.D.Boltaboyev, R.G.Maxkamov, I.T.Maksudov, A.A.Jo‘rayev, B.M.Mardonov, SH.U.Rahmatkoriyev, I.G.Shin, D.M.Muxammadiyev, M.T.Tillayev, N.G.Gulidov, X.X.Xoshimov, E.A.Narmatov va boshqa olimlar tomonidan jinlash jarayonida paxta mahsuloti sifatiga salbiy ta’sirlarni bartaraf qilish, arrali jin mashinasining ish unumini va ishchi qismlarini ishslash muddatlarini oshirish, sarflanayotgan energiya va resurs miqdorini kamaytirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Lekin jinlash texnologik jarayonini ish tartiblarini maqbullah, tola sifatini saqlash uchun ishchi qismlar, jumladan, kolosniklarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish, ko‘rsatkichlarini asoslash, ishslash muddatlarini oshirish uchun yetarli darajada nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasingin FZ-2016-0906180257 “Paxtani dastlabki ishslash texnologik mashinalarini loyihalash, modellashtirish va ishlab chiqish uchun elektron majmuasini yaratish”, YoA-3-05 “Samarali energotejamkor arrali jin konstruksiyasini ishlab chiqish” mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** arrali jin kolosnigining ishslash muddatini konstruksiyasini takomillashtirish va kimyoviy-termik ishlov hisobiga oshirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

arrali jin kolosniklarini konstruksiyalari va ularni tayyorlash aniqligini hamda ishchi yuzalari holatini tadqiq etish;

ishslash muddatini oshirish maqsadida arrali jin kolosnigi ishchi qismini takomillashtirish;

paxta tolasini kolosniklararo tirqishdan o‘tishidagi kolosnikni abraziv yejilishini va xomashyo valigi hamda kolosnik panjarasini o‘zaro ta’sirini nazariy tadqiqi;

ishlab chiqilgan almashuvchan plastinaga kimyoviy-termik ishlov berish imkoniyatini, uning texnologik jarayoni tartiblarini kolosnikning almashuvchan plastinasi materialini fizik-mexanik xossalariiga ta'sirini tadqiq etish;

taklif etilayotgan arrali jin kolosniklarini ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik hisobi:

**Tadqiqotning obyekti** sifatida arrali jin kolosnigi olingen.

**Tadqiqotning predmeti** jin kolosnigini ishchi qismi holatini tadqiq etish orqali uni ishlash muddatini oshiruvchi takomillashtirilgan konstruksiyasini va almashuvchan plastinaga kimyoviy-termik ishlov berish tartiblarini asoslash.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, oliv matematika va matematik statistika usullari, turli shakillarga ega konstruksiyalarni mustahkamligi, chidamliligi, puxtaligini baholash, ko'pomilli tajribalar o'tkazish, tajriba natijalarini qayta ishlash, metallarga kimyoviy-termik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

arrali jin kolosnigini ishchi qismining ishlash muddatini oshirish uchun almashuvchan plastinaga kimyoviy-termik ishlov berish asosida kolosnik konstruksiyasi takomillashtirilgan;

jinlash jarayonida paxta tolasining kolosniklar ishchi qismini tirkishidan o'tishidagi abraziv yeyilishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar baxolash imkoniyatlarini beruvchi funksional ifodalar asosida olingen;

paxtani kolosnik bilan o'zaro ta'sirining kontaktlanadigan yuzalar mikrogeometriyasi va paxta tarkibidagi qattiq zarrachalarning mavjudligini hisobga olgan holda, kolosniklar ishchi yuzalarining abraziv yeyilishini aniqlash imkonini beradigan modeli yaratilgan;

kolosniklar ishchi qismida qo'llaniladigan almashuvchan plastinalarni kimyoviy-termik ishlov berish uchun sementatsiyalash va xromlash usulini bir vaqtda qo'llash mumkinligi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hozirda qo'llanilayotgan jin kolosniginining konstruksiyalarini ishchi yuzalarining fizik-mexanik xossalari, texnologik yuzalarini holati va ularni tayyorlash aniqligi ko'rsatkichlari aniqlangan;

arrali jin kolosnigini ishlash muddatini oshirish uchun uni ishchi qismida oddiy Ct3 markali po'latdan tayyorlangan prizmatik plastinani, kimyoviy-termik ishlov berish orqali, qo'llash mumkunligi asoslangan;

kolosnikga o'rnatilgan almashuvchan plastinaga kimyoviy-termik ishlovni bir vaqtda ham sementatsiyalash ham xromlash usuli va uni amalga oshirishni asosiy texnologik tartiblari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy holatlar, tamoyillar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va tajribaviy tadqiqot natijalarining bir-biriga mos kelishi, aprobatsiya va joriy qilinishidagi ijobjiy natijalar, shuningdek natijalarni solishtirish, baholash mezonlari asosida ularning adekvatligi o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobjiy natijalari va

ularning ko‘rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma’lumotlarga qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani jinlash texnologik jarayonida kolosniklarni ishchi yuzalarini yeyilishiga paxta xomashyosi valigi va kolosniklarni o‘zaro ta’sirini ifodalovchi matematik modellar va yeyilishdan kolosniklararo tirkishni kattalashishini paxta bo‘lakchasini tirkishdan o‘tishidagi abraziv yeyilishga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan matematik bog‘liqliklar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arrali jin mashinasining ishlash muddati oshirilgan kolosnigi konstruksiyasi ishlab chiqilganligi va kolosniklar ishchi qismida qo‘llaniladigan oddiy po‘lat Ct3 dan tayyorlangan almashuvchan plastinalarga kimyoviy-termik ishlov berish uchun bir vaqtda sementatsiyalash va xromlash usulini qo‘llash mumkinligi amaliy jihatdan asoslanganligi, olingan nazariy va tajribaviy ko‘rsatkichlarni ishlab chiqarish sinovlari orqali tasdiqlanganligi, taklif etilayotgan yangi almashuvchan plastinali kolosnikni ishlash muddatlarini kamida 2-3 martagacha oshirilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Arrali jin mashinalarida mavjud kolosniklarning konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida paxtani jinlash jarayonida almashuvchan, xromlangan plastinali, kolosnik konstruksiyasi Xorazm viloyatidagi “Hazorasp Textil” MChJ paxta tozalash korxonasiga tatbiq etildi. (“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 04.10.2024-yildagi 03/25-2639 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori va past navli paxtani jinlashda amaldagi tola sifati navlariga ko‘ra 0,05-0,07 (abs) % ga yaxshilanishi, paxta chigitini shikastlanishi 0,22-0,25 (abs) % ga kam bo‘lishi, tolani “yaxshi” dan “oliy” ga o‘tishiga hamda yeyilishini kamayishi hisobiga kolosnikni ishlash muddatini 2-3 marta oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 10 ta ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqolalar 1 ta Respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiyl xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 110 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnika - texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyatga joriy qilish, natijalarni nashr etish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «Arrali jin kolosnigini tuzilishi va ishlash muddatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlili» deb nomlangan birinchi bobida jinlash jarayonida paxta mahsuloti sifatiga salbiy ta'sirlarni bartaraf qilish, arrali jin mashinasining ish unumini oshirish, uni yangi va takomillashtirilgan qismlar bilan jihozlash orqali ishchi qismlarini ishlash muddatlarini oshirish, sarflanayotgan energiya va resurs miqdorini kamaytirish bo'yicha ilmiy va konstruktiv izlanishlar natijalari tahlil etilgan.

Jinlash texnologik jarayonini ish tartiblarini maqbullahash, tola sifatini saqlash uchun ishlash muddatlari oshirilgan ishchi qismlar, jumladan, kolosniklarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, kimyoviy-termik ishlov hisobiga ishlash muddatini oshirish bo'yicha yetarlicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmaganligi ko'rsatib o'tilgan.


Dissertatsiyaning “**Jin kolosniklarini tayyorlash aniqligi va ishchi yuzalari holatini tadqiq'i**” deb nomlangan ikkinchi bobida yeyilish natijasida kolosniklararo tirkishni o'zgarishi jinlash texnologik jarayonining turg'unligini buzishi, tirkishni turli nuqtalarida jinlash sharoitlari me'yordan kritik holatlarigacha keskin farq qilishi, bu esa tolani sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan o'tilgan.

Jin kolosniklarini tayyorlash aniqligini, “Paxtajin KB” MCHJ sharoitlarida, matematik statistik tahlili bajarilgan. Bunda kolosniklarni bevosita paxta xomashyosini jinlash jarayoniga ta'sir etuvchi ishchi qismining eni aniqligi  $(15,2 \frac{+0,05}{-0,018} \text{ MM})$  tekshirish natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar o'lchash aniqligi 0,001mm bo'lgan maxsus mikrometr yordamida bajarilgan, jami 390 ta kolosniklar eni 3 marta qaytalanib o'lchangan.

Natijalar matematik statistika usullarida qayta ishlangan va o'lchamlarning taqsimlanishini me'yorli, ya'ni Gaus qonuniga mos kelishi aniqlangan. 1-rasmda yangi kolosniklarni o'lchamlarni yoyilish va me'yorli taqsimlanish egrilari keltirilgan.



**1-pasm. Mavjud yangi kolosniklarni amaldagi o'lchamlarni yoyilish (1) va me'yorli taqsimlanish (2) egrilari**



**2-rasm. Ishlatilgan kolosniklarning amaldagi o'lchamlarini yoyilish (1) va me'yorli taqsimlanish (2) egrilari**

Bajarilgan hisoblar natijasida kolosnikni tayyorlashdagi nuqson chiqish ehtimoli ( $\tau$ , %) joizlikni yuqori chekkasi bo'yicha 4,1 %, joizlikni quyi chekkasi bo'yicha 8,1 %, jami 12,2 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Ishlab chiqarishda 3 oyga yaqin ekspluatatsiya qilingan arrali jin kolosniklarini ishchi qismi enini o'lchami ham statistik tahlil etildi va olingan o'lchamlarni yoyilish va meyorli taqsimplanish egrilari 2-rasmida keltirilgan. Ulardan ko'rinadiki, bu davrda barcha kolosniklarni enini o'lchami joizlik maydonidan chiqib ketadi.

Kolosniklar texnologik yuzalarining qattiqligi va g'adir-budurlik darajasi yeyilishiga katta ta'sir ko'rsatishi sababli tahlil etilgan.

Arrali jin kolosnigi ishchi yuzasini qattiqligini o'lchash ishlari Toshkent shahridagi "ENVER" MCHJ korxonasi sharoitlarida TEMP-3 rusumli dinamik qattiqlik o'lchagich yordamida bajarildi va olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jin kolosnigi ishchi qismidagi qattiqlik nisbatan katta oraliqda o'ynaydi, jumladan, bunday o'zgarish Xitoy yangi kolosniklari uchun HB 152-203 ni tashkil etgan holda, Xitoy ishlatilgan kolosniklari uchun HB 151-191ni tashkil etadi. Bunday holat AQSH kolosniklari uchun esa HB 125-165 ni tashkil qilishi aniqlandi, natijada kolosniklarning yeyilish jadalligi turlicha bo'ladi.

Jin kolosniklari ishchi qismi materialini mikrotuzilmasi EUROMIX DC1355F050 markali metallografik mikroskopda tadqiq etildi va olingan mikrotuzilmalar 3-rasmida keltirilgan, unda perlit asosidagi plastinkasimon grafitni ko'rish mumkin.



**3-rasm. Jin kolosnigi ishchi yuzasini mikrotuzilmasi (X-500)**

Jin kolosniklari ishchi yuzalari sifati-g'adir-budurligi GOST 27964-88 talablariga muvofiq tahlil etildi, buning uchun TIME-3200 rusumli qurilmadan foydalanildi va olingan natijalar 1-jadvalda keltirilmoqda.

### **Ishchi yuzalari g'adir-budurligini o'lchash natijalari**

**1-jadval**


Kolosniklar turi	Yuza g'adir-budurligi, Ra ,mkm.			
	Xitoy	AQSH	O'zbekiston	Chizma bo'yicha
Yangi	1,89	2,90	3,10	1,6
Ishlatilgan	1,55	1,60	1,58	-

1-jadvaldagagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, yangi kolosniklar ishchi yuzalari g'adir-budurligi  $R_a=1,9-3,1$  mkm oralig'ida bo'ladi va ishchi chizmada ishchi yuzaga belgilangan g'adir-budurlik darajasidan 2 martagacha yuqori bo'ladi, ammo ishlatilgan kolosnik ishchi qismini g'adir-budurlik darajasi o'rtacha  $R_a=1,6$  mkm ni tashkil etadi, ya'ni belgilangan talablarga javob beradi. Bu holat kolosniklarni tayyorlashda ko'plab jilvirlash operatsiyalariga ehtiyoj yo'qligini ko'rsatadi.

Kolosnikni ishchi qismida qo'llaniladigan material yeyilishga chidamli, tannarxi arzon bo'lishi bilan birga tayyorlash texnologiyasi kam mehnatni talab etishi zarurligini inobatga olgan holda, kolosnik ishchi qismida almashuvchan elementni yassi prizmatik plastina shaklida qo'llash taklifi berilgan (4-rasm).



a)



b)

**4-rasm. Takomillashtirilgan kolosnik (a); yassi prizmatik almashuvchan plastina (b)**

Taklif etilayotgan yassi prizmatik almashuvchan plastinani tayyorlashda eng yuqori talab plastina enini aniqligiga qo'yiladi. Yuza gadir-budurlik darajasi  $R_a=3.2$  mkm deb belgilanadi, bu mexanik ishlov berishdagi jilvirlash operatsiyalari kamaytirish imkonini beradi.

Yassi prizmatik plastinani ishchi texnologik yuzasini yeyilishi kritik qiymatga yetganda plastinani yechib olinadi va uni ikkinchi xuddi shunday orqa yuzasi ishchi texnologik yuza sifatida, kolosnikka qayta mahkamlanadi, yani almashuvchan plastinalarni ishlash muddatini ikki martaga oshirishga erishiladi. Amashuvchan plastina materiali sifatida oddiy Ct3 markali po'lat qo'llanilgan hamda uning yeyilishga chidamlilagini ta'minlash maqsadida kimyoviy-termik ishlov berish usullaridan foydalanish tavsiya etilgan.

Dissertasiyaning “Arrali jin kolosnigini paxta bilan o'zaro ta'sirini nazariy tadqiq etish” deb nomlangan uchinchi bobida jinlashda kolosniklar asosan tolani kolosnik bilan kontaktida va abrazivlarni kolosnik yuzasiga ta'sir ko'rsatishidagi yeyilishini aniqlash mumkinligi takidlangan.

Abrazivli yeyilish holatida paxtadagi chang va iflos qo'shimchalar kolosnik bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, uni yuzasida, abraziv donachani ishchi yuzaga bosilish darajasiga bog'liq, mikroqirqishlar hosil qiladi. U tolani tortilishiga bog'liq bo'ladi va bu holatda abraziv donachani kolosnik ishchi yuzasiga bosim kuchi quyidagiga teng bo'ladi:

$$P = \frac{Q}{S} = \frac{F_t * \sin\theta}{S} \quad (1)$$

Bu yerda:  $P$ -abraziv donachani kolosnik ishchi yuzasiga bosim kuchi,  $Pa$ ;  $\theta$ - tolalar orasidagi burchakni yarmi, grad;

$S$ -abraziv donacha ko'ndalang kesimi yuzasi,  $mm^2$ ;


$Q$ - reaksiya kuchi, N;  $F_t$ - tortish kuchi, N.

Bosim va qattiqlik orasidagi farqni hisobga olgan holda, yeyilish jadalligini tasniflovchi koeffisentni quydagicha aniqlash mumkin:

$$J = \frac{HB - P / 0,3}{HB} \quad (2)$$


Bu yerda: *HB*-Brinell bo'yicha material qattiqligi.

Paxta tolasidagi mayda chiqindi, ya'ni abraziv donachani tolaga bosimini bilgan holda, uni pichoqli arrani tishiga o'xshaydi deb taxmin qilish mumkin. U o'zini butun eni bo'yicha kesa olmaydi, chunki tolani tortilish kuchi donachaga yetarlicha bosim ko'rsatmaydi, ammo mikroqirqish kuzatiladi (5-rasm) va uni qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin:



1-kolosnik; 2-abraziv donacha; 3-tola; 4-chigit.

**5-rasm. Jinlash jarayonida mayda chiqindilarini kolosnikka abraziv ta'siri sxemasi**



1-kolosnik, 2-abraziv donacha.

**6-rasm. Abraziv donachani (mayda chiqindini) tortilishi cxemasi**

$$\tau = \frac{F_T}{S} = \frac{F_T}{h_a * b} \quad (3)$$

Bu yerda;  $\tau$ -qirqish chegarasi,  $Pa$ ;  $h_a$ -abraziv donacha kesadigan chuqurlik, mm;  $b$ -abraziv donachani ko'ndalangidagi eng katta o'lcham, mm.

6-rasmida keltirilgan sxemadan ko'rinaridiki, abraziv donachani tortilish kuchi donacha va tola orasidagi ishqalanish kuchiga teng bo'ladi. (1) dan kelib chiqqan holda, uni quyidagi ko'rinishda ko'rsatish mumkin:

$$F_{kes} = f * Q = f * F_T \sin \theta, \quad (4)$$

Bu yerda:  $f$ -ishqalanish koeffitsiyenti,  $Q$ - reaksiya kuchi, N.

(4) ni (3) ga qo'yib donachani botirilishi chuqurligi aniqlanadi:


$$h = \frac{f \cdot F_T \cdot \sin \theta}{\tau \cdot b}, \quad (5)$$

Iflosgarlik va changlanishni umumiyligi  $k$  koeffitsiyentini bilgan holda, arradagi tishlarni hamda val aylanishlarini ma'lum sonida, vaqt ichidagi yeyilishini formulalarini birlashtirish orqali aniqlash mumkin:

$$h = 60n_z \frac{f \cdot F_T \sin \left( \arcsin \frac{2L_1}{M} \right)}{\tau_{cp} \cdot b} \cdot \frac{t^2 \sin \gamma_1}{4d} \left( \frac{\cos \alpha}{\cos(\alpha + \gamma_1)} - \frac{\cos \varphi}{\cos(\varphi - \gamma_1)} \right) k_J, \quad (6)$$

Bu yerda  $L_I$ -tola uzunligi, mm;  $M$ -chigit eni, mm;  $t$ -tishlar qadami, mm;  $J$ -yeyilish jadalligini tasniflovchi koeffitsiyent;  $n$ -valni aylanishlari soni,  $\text{min}^{-1}$ ;  $z$ -arradagi tishlar soni.

(6) formula tahlili kolosnikni yeyilishini kamaytirish va tegishli ko'rsatkichlarni sozlash uchun qattiqlikni asosiy omil deb qarash mumkinligini ko'rsatadi.



**7-rasm. Nisbiy yeyilishini kolosnik qattiqligiga bog'liqligi grafigi**


Kolosnikka yonboshli bosim va arrali silindrni aylanish tezligini bilgan holda, yeyilish kattaligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$E = P_x \cdot V \cdot K_z \cdot T \quad (7)$$

bu yerda:  $V$ -arrali silindrni aylanish tezligi, m/s;  $P_x$  –yonboshli bosim, mPa;  $T$ -ishlash vaqt, min;  $K_z$ -yeyilish jadalligi koeffitsiyenti,  $\text{mm} \cdot \text{s}^2 / \text{Pa} \cdot \text{m}$ .

Kolosniklararo tirkishda xomashyo valigini ponasimon sirpanish holatlari ko'rib chiqildi, bunda xomashyo valigini deformatsiyasi nochiziq qonuniyatga bo'y sunadi.  $P_x$  kuchini pona tomonidan ko'rsatiladigan reaksiya deb qabul qilindi.

Ko'ndalang kesimda, ya'ni  $XOY$  tekisligida siljutuvchi kuchlarga teng ta'sir etuvchisini qo'yiladigan nuqtasi bo'lib, yassi shakldagi maydon og'irlik markazi hisoblanadi (8-rasmdagi "C" nuqta).



**1-arra ; 2-kolosnik; 3-xomashyo valigi**

**8-rasm. Arra va kolosnik orasidagi pona ko'rinishdagi xomashyo valigi sxemasi**

Kolosniklar ishchi yuzalari qattiqligini o'zgarishidan foydalanish orqali, ishchi qirrani oldingi burchagiga bog'liq holda, nisbiy yeyilishni quyidagi grafigi olindi (7-rasm):

Grafikdan ko'rindaniki, kolosnik ishchi qismini qattiqligini ortishida nisbiy yeyilish kamayadi va ishchi qirrani oldingi burchagini nisbatan kichik qiymatlarida bu ko'rsatkich yuqoriroq bo'ladi.

Pona to‘g‘ri yonboshli trapetsiya shakliga ega deb hisoblansa, u holda, har qanday oraliq  $l$  qatlami uzunligini yuqori  $a$  asosdan  $y_1$  masofada keltiriladi (8a rasm):

$$l = a - y \tan \frac{\varphi}{2}; \quad (8)$$

$C_1$  nuqta koordinatasi ham yuqori asos a dan boshlab hisoblanadi:

$$y_1 = \frac{h_1}{3} \frac{(2b+a)}{(a+b)}, \quad (9)$$

Bunda:  $b$ -ponani quyisi eni, mm.;  $h$ - ponani kolosnik bilan kontakt nuqtasidan ponani quyisi xalqasigacha bo‘lgan masofa, mm.

Hisoblarni soddalashtirish, giperbolik qonuniyatni yoyish orqali olingan trapetsiyada og‘irlik markazi  $y_2$ , ya’ni quyisi asosdan (8-rasm) bosim markazini ( $C_2$ nuqtasi) aniqlash mumkin:

$$y_2 = \frac{h_1}{3} \frac{\left(\frac{\omega}{a} + 2\frac{\omega}{b}\right)}{\left(\frac{\omega}{a} + \frac{\omega}{b}\right)} = \frac{h_1}{3} \frac{(b+2a)}{(a+b)}; \quad (10)$$

Yakunda teng ta’sir etuvchi kuchlarni qo‘yilish nuqtalari ekssentrisiteti  $e$  (8b- rasm) quydagi teng bo‘ladi:

$$e = y_1 - y_2 = \frac{h_1}{3} \frac{(b-a)}{(a+b)}; \quad (11)$$

Agarda pona materialini siqilishga teng ta’sir etuvchi kuchi  $F_x$   $C_2$  nuqtada qo‘yilganini hisobga olsak, u ishqalanish koeffisiyentini inobatga olgan holda, asos tirkishida ponani bo‘ylama siljishiga qarshilik ko‘rsatuvchi  $F_{ishq}$  ishqalanish kuchini ham aniqlaydi.

Yig‘ma ishqalanish kuchi ponani siljituvchi  $F_1$  kuchiga tengligini hisobga olib, uni aniqlash tenglamasiga o‘zgartirishlar kiritish va integrallash quydagi ifodani beradi:

$$F_1 = qf'' \left( L + ef'' \left( 1 - e^{-\frac{L}{ef''}} \right) \right); \quad (12)$$


bu yerda:  $L$ -ishchi yuzauzunligi, mm;  $q$ -taqsimlangan kuch, N;

Bundan kelib chiqadiki,  $e=0$  da

$$F_x = qf'' L; \quad (13)$$

Shunday qilib qayd etish mumkinki, ekssentrisitetni qiymatini kattalashishi ishqalanish burchagiga bog‘liq bo‘ladi, ishqalanish burchagini ortishi esa, yonboshli bosimni oshishi bilan, kolosnikni yeyilishi natijasida kelib chiqadi. (12) formulaga sonli miqdorlarni qo‘yib hisoblash natijalari shuni ko‘rsatadiki, pona burchagini  $2^0$  ortishida sarflanayotgan quvvat 15% ga (nisb) ortadi.

Dissertasiyaning “**Arrali jin kolosniklarini ishlash muddatini oshirish usulini tadqiq etish va takomillashtirilgan kolosnikni ishlab chiqarish sinovlari**” deb nomlangan to‘rtinchı bobida arrali jin kolosnigi almashuvchan plastinasi materialini abraziv yeyilishini tadqiq‘i maxsus qurilmada amalga oshirildi (9-rasm) va olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.



1-rama;  
2-motor;  
3-disk;  
4-qo‘zg‘almas disk;  
5-halqa;  
6-stakan;  
7-bunker.



a)

b)

**9-rasm. Yeyilish jadalligini aniqlash uchun tajriba qurilmasini  
a- sxemasi, b- umumiy ko‘rinishi**

### **Yeyilish jadalligini aniqlash natijalari**

**2-jadval**

Tekshirilayotgan material	Ct3	У8Г	Ct3, Kimyoviy- termik ishlov	BK6	T15K6
Yeyilish jadalligi koeffitsiyenti mm·s <sup>2</sup> /Pa·m	0,01	0,008	0,002	0,002	0,0015

O‘tkazilgan tajribalar natijalariga ko‘ra oddiy po‘lat Ct3 yeyilish jadalligi koeffitsiyenti  $0,01 \text{ m} \cdot \text{s}^2 / \text{Pa} \cdot \text{m}$  ga teng bo‘lgan holda, qattiq qotishma T15K6 uchun bu ko‘rsatkich bor yo‘g‘i  $0,0015 \text{ m} \cdot \text{s}^2 / \text{Pa} \cdot \text{m}$  ni tashkil etishi kuzatildi. Kimyoviy-termik ishlov berilgan po‘latlarni yeyilish jadalligi koeffitsiyenti kichik, chunki bunday po‘latlarni yuza qattiqligi yuqori (HRC 66-70) bo‘ladi. Qattiq qotishmalarning tanqisligi va qimmatligini hisobga olgan holda, kimyoviy-termik ishlov berilgan oddiy Ct3 markali po‘latdan foydalanish taklif etilgan.

Arrali jin kolosnigini ishlash muddatini oshirish uchun xromlash usulini tajribaviy tadqiq etishda arrali jin kolosnigini almashuvchan plastinasi  $a \cdot b \cdot s = 50 \cdot 15 \cdot 4 \text{ mm}$  o‘lchamlarda tayyorlangan, yuza qatlami belgilangan tartibda tozalangan va xromlash jarayoni bajarilgan. Bunda yuza qatlamini diffuzion to‘yintirish ikki xil texnologiyalar bo‘yicha amalga oshirilgan: birinchi texnologiyani boshlang‘ich bosqichida sementasiya, ikkinchi bosqichida esa xrom bilan diffuzion to‘yintirish jarayonlari bajarilgan.

Ikkinchi texnologiya bo‘yicha plastina ishchi yuzasini xromlash va sementasiyalash bir vaqtida amalga oshirilgan, bunda xromlash uchun tayyorlangan kukun tarkibiga sementasiyalash komponentlari kiritilgan. Kukun tarkibi-ko‘mir kukuni-40%, kalsiy karbonat  $\text{CaCO}_3$ -10%, ferroxrom  $\text{FeCr}$  -40%, ammoniy xlorid  $\text{NH}_4\text{Cl}$ -1...3%, qolgani alyumin oksidi  $\text{Al}_2\text{O}_3$ . Plastinalarni pechda

8-20 soat davomida  $1100^{\circ}\text{C}$  da ushlab turilgan. Bunday texnologiya ishlov berish jarayonini davomiyligini ikki marta qisqartirish imkonini bergen.

10-rasmda xromlangan almashuvchan plastinalarni umumiy ko‘rinishi namuna sifatida keltirilgan.




**10-rasm Xromlangan almashuvchan element**

*OXION INVERSO* rusumli metallografik mikroskopda yuzaga komponentlarni singish miqdori kuzatilgan (11-rasm).



**a)**




**b)**

**11-rasm. a) OXION INVERSO rusumli metallografik mikroskop umumiy ko‘rinishi,  
b) almashuvchan plastina yuzasi sementasiyalangan va gazli xrom bilan  
to‘yintirilgan shlif fotosi**

Rasmdan ko‘rinadiki, ostki oq tusli yuza va o‘sib boruvchi oq dog‘lar xromni singish darjasini hisoblanadi.

Xromlash bilan kimyoviy-termik ishlov berilgan plastinalar yuzalarini qattiqligini *TIME THBRV-187.5DX* rusumli qattiqlikni o‘lchash qurilmasida Vikkers usulida aniqlandi va tadqiq etish natijalari 12-rasmda keltirilgan.



**12-rasm. Jin kolosnigi almashuvchan plastinalarini xromlash bilan kimyoviy-termik ishlov berish natijalari**

Keltirilgan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, agarda jarayon karbiryuzatorli muhitda bajarilganda, ushlash vaqtiga bog‘liq holda, singish chuqurligi 0,1-0,21 mm. oralig‘ida bo‘lsa, karbyurizatorsiz muhitda, mos holda, 0,07-0,13 mm. ni ko‘rsatadi

Qattiqlik ikkala muhitda deyarli bir hil qiymatga ega (HV 1280-1289) ya’ni, oddiy Ct3 markali po‘lat qattiqligiga nisbatan 4-5 marta oshadi va yuqori sifatli termik ishlangan po‘latlarga teng bo‘ladi.

Kolosnik almashuvchan plastinasi yuzasini maqbul to‘yintirishni aniqlash uchun ko‘pomilli tajribalar o‘tkazildi. Bunda yuzalarni to‘yintirish jarayonini birlamchi tahlillari asosida, unga ta’sir etuvchi quyidagi kiruvchi omillar tanlab olingan: jarayonni davomiyligi, soat. ( $X_1$ ); o‘tkazish temperaturasi,  $^{\circ}\text{C}$ , ( $X_2$ ); qo‘llaniladigan kukun tarkibi ( $X_3$ ).


Tajribalarda chiquvchi omil sifatida ko‘rib chiqilayotgan texnologiyalarni (sementatsiyalash va xromlashni alohida bajarish hamda birgalikda usullari) amalga oshirishdagi yuzani to‘yintirish chuqurligi qabul qilindi ( $Y$ , mm.) va u *OXION INVERSO* rusumli metallografik mikroskopda aniqlandi.

O‘tkazilgan tajribalar natijalarini matematik statistikani belgilangan tartiblari yordamida qayta ishlandi va yakunda quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$Y=0,14+0,05X_1+0,03X_2+0,02X_3+0,01X_1X_2+0,02X_1X_3+0,01X_2X_3 \quad (14)$$

Keltirilgan formula tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘yintirish chuqurligi yuzalarni bir vaqtida sementatsiyalash va xromlash texnologiyalarida yuqori bo‘ladi. Tajribalarda to‘yintirish chuqurligini baholash faqat xromlash bo‘yicha emas, balki mustahkamlanadigan qatlam bo‘yicha olib borildi, chunki sementatsiyalashdan so‘ng toza xromlashda xrom karbidi 0,21 mm. dan ortiq bo‘limgan chuqurlikda namoyon bo‘ladi. Alohida ta’kidlash joizki, bir vaqtida sementatsiyalash va xromlash jarayonlari bajarilishida xrom qatlamga chuqurroq kirib boradi, bu Vikkers usulida yuza qattiqligini o‘lchash natijalaridan ham kelib chiqadi.


Xrom atomlari o‘lchamlarini uglerodnikidan katta bo‘lishi to‘yintirishda o‘zi chuqur kirib bora olmaydi va bu bilan uglerod atomini siljishiga qarshilik yaratadi. Shuning uchun, asosiy omillar sifatida to‘yintirish temperaturasi va vaqt qabul qilindi va ularni singish chuqurligiga ta’siri o‘rganildi. O‘tkazilgan tajribalar natijalari 13-rasmda keltirilgan.



**13-rasm. Singish chuqurligini xromlash davomiyligi va temperaturaga bog'liqligi**

Keltirilgan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xromlash jarayonini o'tkazishni turli tartiblari-jarayon harorati va davomiyligiga bog'liq holda, xromni singish chuqurligi karbiryuzatorli yoki karbiryuzatorsiz o'tkazish sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Masalan,  $900^0$  C haroratda va 8 soat ushslash vaqtiga karbiryuzatorsiz xromlashda singish chuqurligi 0,07 mm, etsa, karbiryuzator qo'llanilishida 0,10 mm ni tashkil etadi, ya'ni 1,43 martaga oshadi. Harorati  $1000^0$  C va ushslash vaqtiga 10 soatda karbiryuzatorsiz xromlashda singish chuqurligi 0,10 mm ni, karbiryuzator qo'llanilishida 0,15 mm ni tashkil etadi, ya'ni 1,5 martaga oshadi.

O'tkazilgan tajribalar natijasida aniqlangan regression tenglamadagi kiruvchi ko'rsatkichlarni ta'sirini izochiziqlarda keltirilgan (14-rasm).



To'yintirish jarayoninida amalga oshirish vaqtı  $x_1 = 0.6 \div 1$  gacha o'zgarishi va to'yintirish jarayonini amalga oshirish temperaturasi  $x_2 = 0.2 \div 1$  o'zgarishi hisobiga singuvchanlik chuqurligi o'zgarishi izochiziqlarda a) karbyuratorsiz, b) karbyuratorli jarayonida amalga oshirilgan.

**14-rasm. Kiruvchi ko'rsatkichlarni ta'siri izochiziqlari**

Yuqoridagi grafiklar tahlilidan shuni takidlash mumkinki, to‘yintirish jarayonida karbyurizatorsiz holat uchun temperatura  $900^{\circ}\text{C}$ - $1000^{\circ}\text{C}$  ga, to‘yintirish vaqtini esa 8 dan 16 soatgacha o‘zgarishida singish chuqurligini 0,2 mm. gacha to‘yintirish jarayoni karbyurizatorli holatda yuqoridagi tartiblarda o‘tkazilishi esa, singish chuqurlugi 0,21 mm. gacha, ya’ni 1,75 martaga yuqori bo‘ladi.


Yuqoridagi ma’lumotlarni qayta ishslash natijasida xrom va uglerod bilan diffizyon to‘yintirish tezligini aniqlovchi quydagi formula olindi:

$$h_y = A \cdot T^{\frac{1}{k}} e^{-\frac{t}{t_0}} \quad (15)$$

Bu yerda:  $A$ -singishni hisobga oluvchi koeffitsent ( $A=0.15$  karbiryuzatorsiz jarayon,  $A=0.10$  karbiryuzatorli jarayon);  $h$ -singish suqurligi mm/soat;  $A$ -singishni hisobga oluvchi koeffitsent  $T$ -harorat,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $k$ -sharoitni inobatga oluvchi koeffisiyent;  $t$ -vaqt, soat;  $t_0$ -jarayonni tasniflovchi vaqt ( $t_0=25$  karbiryuzatorsiz jarayon,  $t_0=0$  karbiryuzatorli jarayon).

Agar to‘yintiriladigan qatlam qaliligi 0,1 mm deb qabul qilinsa, jarayon temperaturasi  $900^{\circ}\text{C}$  da, to‘yintirish vaqt 12 soatni tashkil qiladi. Bunday natija nazariy farazlarga mos keladi, farqlanish 1,5% dan kam bo‘ladi.

15-rasmda kolosnik almashuvchan plastinasini o‘rtacha qattiqligining o‘zgarishini qiyosiy diagrammasi keltirilgan.



**15-rasm. Qattiqlik bo‘yicha qiyosiy diagramma**

Keltirilgan jadval va diagrammadagi natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xitoy yangi kolosnigini (1) ishchi qismi qattiqligi HB 179 ni, Xitoy ishdan chiqqan kolosnigini (2) esa HB 167 ni, AQSH yangi kolosniginiki (3) HB 145 ni tashkil qilgan holda va taqdim qilinayotgan (4) xromlangan plastinalar ishchi qismi qattiqligi HB 729 ni tashkil qiladi, ya’ni keskin yuqori bo‘ladi. Bu o‘z navbatida arrali jin kolosniklarini ishslash muddatini oshirishga xizmat qiladi. Bajarilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlarga asoslanib, jin kolosnigi ishchi qismida almashuvchan element sifatida oddiy Ct3 markali po‘latdan tayyorlangan va ishchi yuzalari xromlangan plastinadan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi va ishlab chiqarish sinovlari uchun Xorazm viloyati “Hazorasp Textil” MCHJ qo‘shma korxonasi ishlab chiqarish sharoitida jin mashinasini kolosnikli panjaraasiga o‘rnatildi (16-rasm).



**16-rasm. Sinovdan o‘tayotgan kolosniklar o‘rnatilgan panjara**

Sinov ishlari boshlang‘ich namligi 10,6 % va 13,5 %, iflosligi 8,1 % va 11,7 % bo‘lgan “Xorazm-127” seleksiyali paxtaning I va III nav 2-sinfida o‘tkazildi. Bunda jinlashga berilgan I nav 2-sinflı paxtaning namligi o‘rtacha 8,8 % ni, iflosligi o‘rtacha 1,37 % ni, paxta tarkibidagi chigit shikastlanishi o‘rtacha 1,86 % ni, III nav 2- sinflı paxtaning iflosligi 1,66 % ni, chigit shikastlanishi 2,23 % ni tashkil etdi. Qiyosiy ishlab chiqarish sinovlari natijalari 3-jadvalda keltirilmoqda.

#### **Qiyosiy ishlab chiqarish sinovlari natijalari**

**3-jadval**

№	Paxtani- ng sanoat navi va sinfı	Kolosnik turi	Chigit tukdor -ligi, %	Chigit shikastlanishi, %	Tola tozaligi, %		Tola sifati
					Jindan keyin	Tozalagi hdan keyin	
1	“Xorazm- 127” I nav 2 sinf	Mavjud	10,4	3,11-3,22	3,17-3,21	2,24-2,29	I nav “yaxshi”
		Takomil- lashtiril- gan	10,4	2,86-3,0	3,12-3,14	1,91-1,98	I nav “oliy” va “yaxshi”
2	“Xorazm- 127” III nav 2 sinf	Mavjud	11,8	3,28-3,48	3,53-3,68	3,24-3,33	III nav “yaxshi”
		Takomil- lashtiril- gan	11,8	3,16-3,4	3,49-3,60	2,76-2,87	III nav “oliy”

3-jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadi, “Xorazm-127” I nav 2 sinf paxtasini takomillashtirilgan kolosniklar yordamida qayta ishslashda, mavjud kolosniklarga nisbatan, tola tozaligi 0,05-0,07 (abs.) % ga yaxshilandi, chigit shkastlanishi 0,22-0,25 (abs.) % ga kamayadi, tola sifati “yaxshi” dan “oliy” ga o‘tdi. Bunday ijobjiy holatlarni “Xorazm-127” seleksiyali III nav 2-sinflı paxtani qayta ishslashda ham kuzatildi. Ishlab chiqarish sinovlari besh oy ishlagan mavjud

kolosniklarni yeyilishidan oraliq tirqish 3,5-4,27 mm gacha ortgan holda, xromlangan almashuvchan plastinalarniki 2,9-3,1 mm ni tashkil etishini ko‘rsatdi, ya’ni belgilangan kattalik ( $3\pm0.2$  mm) saqlanib qoladi.

Ishlash muddati oshirilgan jin kolosnigini joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish sinovi natijalari bo‘yicha paxta tozalash korxonasi uchun 142 264,0 ming so‘mni tashkil etadi.

## Umumiyl xulosalar

“Arrali jin kolosnigining ishlash muddatini konstruksiyasini takomillashtirish va kimyoviy-termik ishlov hisobiga oshirish” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyidagilardan iborat.

1. Arrali jin kolosnigini tayyorlash aniqligini matematik statistika yordamida tadqiq etish natijalari asosida kolosnikni ishchi qismini enini tayyorlashdagi nuqson chiqish ehtimoli ( $\tau$ , %) joizlikni yuqori chekkasi bo‘yicha 4,1 %, joizlikni quyi chekkasi bo‘yicha 8,1 %, jami 12,2 % ni tashkil etishi aniqlandi.

2. Arrali jin kolosnigini ishlash muddatini oshirish maqsadida ishchi qismida qo‘llash uchun almashuvchan, ikki parallel yuzalaridan foydalanish mumkin bo‘lgan, oddiy Ct3 markali po‘latdan tayyorlangan va kimyoviy-termik ishlov berilgan, yassi prizmatik plastina konstruksiyasi ishlab chiqildi.

3. Jinlash jarayonida paxta tolasining kolosniklar ishchi qismini tirqishidan o‘tishidagi abraziv yeyilishiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar baholash imkoniyatlarini beruvchi funksional ifodalar asosida olingan;

4. Paxtani kolosnik bilan o‘zaro ta’sirining kontaktlanadigan yuzalar mikrogeometriyasi va paxta tarkibidagi qattiq zarrachalarning mavjudligini hisobga olgan holda, kolosniklar ishchi yuzalarining abraziv yeyilishini aniqlash imkonini beradigan modeli yaratilgan;

5. O‘tkazilgan tajribalar asosida oddiy Ct3 markali po‘latni yeyilish jadalligi  $0,01 \text{ mm}\cdot\text{s}^2/\text{Pa}\cdot\text{m}^2$ , uglerodli Y8A po‘latniki esa  $0,008 \text{ mm}\cdot\text{s}^2/\text{Pa}\cdot\text{m}^2$ , qattiq qotishma T15K6 niki  $0,0015 \text{ mm}\cdot\text{s}^2/\text{Pa}\cdot\text{m}^2$  tashkil qilgan holda, kimyoviy-termik ishlov berilgan oddiy Ct3 markali po‘latlarda bu ko‘rsatkich  $0,002 \text{ mm}\cdot\text{s}^2/\text{Pa}\cdot\text{m}^2$  ga teng bo‘lishi, ya’ni yeyilish jadalligi 4-5 martaga kamayishi kuzatildi.

6. Almashuvchan plastinaga kimyoviy-termik ishlov berishning maqsadga muvofiq bir vaqtda xromlash, va sementatsiyalash texnologiyasini maqbul tartiblari quyidagicha bo‘lishi aniqlandi: kukun tarkibi-ko‘mir kukuni 40 %, kalsiy karbonat ( $\text{CaCO}_3$ ) 10 %, ferroxrom ( $\text{FeCr}$ ) 40 %, ammoniy xlorid ( $\text{NH}_4\text{Cl}$ ) 1...3 %, qolgani alyumin oksidi ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ). Jarayon temperaturasi  $900-1000^\circ\text{C}$ , davomiyligi 8-20 soat.

7. Aniqlandiki, ishlab chiqilgan texnologiya boyicha bir xil tartiblarda karbiryuzatorsiz xromlashda singish chuqurligi o‘rtacha  $0,12 \text{ mm}$  ni tashkil etsa, karbiryuzator qo‘llanilishida bu ko‘rsatkich  $0,21 \text{ mm}$  ni tashkil etadi, ya’ni  $1,75$  martaga ortadi. Bunda xromlangan plastinalar ishchi qismi qattiqligi HB 729, bo‘ladi.

8. Ishlab chiqarish sinovlari mavjud kolosniklarni yejilishidan oraliq tirqish 3,5-4,27 mm gacha ortgan holda, xromlangan almashuvchan plastinalarni yejilishida 2,9-3,1 mm ni tashkil etishini ko'rsatdi ya'ni belgilangan kattalik ( $3\pm0.2$  mm) saqlanib qoladi. Bunda paxtani jinlashdagi tola tozaligi 0,05-0,07 (abs) % ga yaxshilanishi, chigit shkastlanishi 0,22-0,25 (abs) % ga kamayishi Tolani "yaxshi" dan "Oliy" ga o'tishi kuzatildi.

9. Ishlash muddati oshirilgan jin kolosnigini joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish sinovi natijalari bo'yicha paxta tozalash korxonasi uchun, 142 264,0 ming so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/30.12.2019. Т.08.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЁГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**АТАЖАНОВ АКБАР БАЗАРБОЕВИЧ**

**ПОВЫШЕНИЕ ДОЛГОВЕЧНОСТИ КОЛОСНИКА ПИЛЬНОГО ДЖИНА  
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕМ КОНСТРУКЦИИ И ПРИМЕНЕНИЕМ  
ХИМИКО-ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и  
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.4.PhD/T5095.**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещена на веб-сайте Научного совета по адресу (<http://www.ttyesi.uz>) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Сафаев Абдухалил Абдурахимович**  
кандидат технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Жуманиязов Кадам Жуманиязович**  
доктор технических наук, профессор

**Мухаммадиев Давлат Мустафоевич**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Джиззакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 30 апреля 2025 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжаон, 5. Административное здание Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: titlp\_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирован за №232) (Адрес: 100100, Ташкент, ул. Шохжаон, 5, тел.: (+99871) 253-08-08).

Автореферат диссертации разослан 12 апреля 2025 года.

(реестр протокола рассылки №232 от 12 апреля 2025 года).

**Х.Х.Камилова**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.З.Маматов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**

Председатель научного семинара при научном совете по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Интенсивное развитие мировой текстильной промышленности предполагает, прежде всего, переработку высококачественного хлопкового волокна, в связи с чем на сегодняшний день обеспечение качества хлопкового волокна осуществляется в направлении использования на хлопкоочистительных предприятиях новых техники и технологий, а также совершенствования существующих. В ряде ведущих стран по выращиванию и переработке хлопкового волокна, как Китай, США, Индия и Турция проводятся широкомасштабные работы по разработке новых рабочих органов и их совершенствованию для технологического процесса первичной переработки хлопка. В этом направлении особое внимание уделяется использованию энерго- и ресурсосберегающих технологических машин и оборудований, позволяющих повысить качество хлопковой продукции и снизить ее себестоимость.

В мире качество хлопка определяется главным образом длиной волокна, его внешним видом, а также количеством содержащихся в нём сорных примесей. Учитывая это, интенсивно проводятся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование основного этапа технологического процесса переработки хлопка–технологии джинирования. В частности, особое внимание уделяется реализацию широкого спектра решений по автоматизации технологического процесса джинирования, повышению его производительности, обеспечению энергосбережения, повышению эксплуатационной надежности машины, разработке ресурсосберегающих конструкций одного из основных рабочих органов–колосников.

В нашей Республике особое внимание уделяется созданию энерго - и ресурсосберегающих конструкций, а также совершенствованию находящихся в эксплуатации технологических машин и оборудований первичной переработки хлопка и достигнуты конкретные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в частности, определены важные задачи по «...обеспечению устойчивости национальной экономики и увеличению доли промышленности в валовом внутренней продукции». Для осуществления этих задач в хлопкоочистительной промышленности разработка новых рабочих элементов, повышающих срок службы, машин, усовершенствование колосников для пильного джина, обоснование их параметров, обеспечение рабочих части рациональными материалами, а также решение проблемы снижения энерго и ресурсосбережения имеет важное значение.

